

29-dars

Darsning mavzusi: His-hayajon gaplar (80 – 84-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'z fikrini aytish birligi sifatida gap haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish; his-hayajon gaplar haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: tabiatni kuzatish, o'rganish va asrashga o'rgatish; o'zining xato-kamchiliklarini to'g'ri tushunish, mustaqil o'qib-o'rganish va bilimni muntazam oshirib borishga o'rgatish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi dars

Darsning metodi: savol-javob, ko'rgazmalilik, *“Tinish belgisini to'g'ri qo'y!” ta'limiy o'yini.*

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Bolalar, yo'llarda to'g'ri harakatlaning!

O'tilgan mavzular savol-javob o'tkaziladi.

79-mashqning bajarilishi o'qituvchi tomonidan tekshirib chiqiladi. uy vazifasi tekshirilayotganda doim o'quvchilarga “Qaysi so'zda yoki shu so'zning qayerida imlo xato qilib qo'yish mumkin” degan savol berish, o'sha so'zning imlosi ustida ishlash lozim.

III. Yangi mavzu bayoni.

Darslikdagi 80-mashq o'quvchilarga o'qitiladi. Bu mashq guruhlarda olib boriladi. Har bir guruh o'zining rasmini darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplar bilan boyitib, kichik hikoya tuzadilar.

Qoidani yod olish topshiriladi.

Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gaplar **his-hayajon gap** deyiladi. His-hayajon gapning oxiriga **undov belgisi** qo'yiladi.

Qo'shimcha sifatida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tish mumkin.

Tarkibida his-hayajonni ifodalaydigan qanday, qanchalik, qanchalar, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik kabi so'zlar mavjud bo'lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

◇ His-hayajon darajasi kuchli bo'lgan ritorik so'roq gaplar oxiriga ba'zan undov belgisi qo'yiladi.

◇ Buyruq, talab, undash mazmuni his-hayajonli shaklda buyruq maylidagi fe'l yoki boshqa vositalar orqali ifodalangan buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

◇ His-hayajon ohangi bilan talaffuz qilingan nominativ (atov)gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

◇ Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma'qullash, rag'batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan gaplarda ham ko'pincha his-hayajon yorqin ifodalanadi va ularning oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

IV. Mustahkamlash.

Darslikdagi 81-mashq yozma bajariladi.

Odam degani saxovatli bo'lishi kerak, bolam!

O'quvchilarga his-hayajonli gaplarga misollar keltirish topshiriladi.

Xayr! Men ketdim!

Bolalar, gaz va suvni tejang!

82-mashq bajariladi.

-Asalari boqadiganlar nimadan daromad olishi mumkin?


-Asalari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

- Berilgan rasmlarga mos gaplar tuzing.



83-mashq yozma bajariladi. Matnda darak, so'roq va his-hayajon gaplar borligi aytiladi.

Qo'shimcha tarzda quyida berilgan topshiriqlar bajariladi. "Tinish belgisini to'g'ri qo'y!"



V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

84-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.